



O'ZBEK FOL'KLOR SAN'ATINING JILO MAVJLARI

Muallif: Nigini Tashniyazova¹

Affilyatsiya: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti murabbiysi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14381394>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek musiqa folklor ijrochiligining rivojlanitish tarixiy shart-sharoitlari, unda musiqa, raqs, tasviry va amaliy san'at uyg'unligi, folklor ansamblarining roli va o'rni xaqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, raqs, folklor, jamoa, qo'shiq, ijro, ansambl, repertuar.

Har bir xalqning raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'sirida tarkib topib rivojlangan. O'zbek raqlarini mazmunini ifodalashda ijrochilar tepki, qarsak, zangdan ham foydalanganlar. Ayrim raqlar ro'mol, piyola, qadah kabi buyum bilan ijro etilgan, ba'zan ijrochi xalq cholg'u asboblari (qayroq, doira, nog'ora va h.k.) da o'ziga o'zi jo'r bo'lgan. Raqs san'ati insonning mehnat jarayoni va borliqdan olgan hissiy taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Bu san'at dastlab qo'shiq va so'z bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik mustaqil san'at turiga aylangan. Raqs asrlar davomida takomillashib, barqaror shakllarga ega bo'la borgan. Ijrochining libosi raqs obrazlariga aniqlik bergen.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyyolilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda milliy madaniyatimiz, adabiyot va san'atimizni rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb masalalar, ularni hal etish yo'llari, bu borada ijodiy uyushmalar va davlat tashkilotlari oldida turgan muhim vazifalar haqida atroflicha fikr almashildi. Uchrashuvda prizident Sh. M. Mirziyoyev o'z nutqida "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi", degan fikrni qat'iyat bilan ta'kidladi.

Buyuk rus baletmeysteri, xalq artisti, turli xalqlar raqs san'ati bilimdoni I.A. Moiseyev xalq raqlarini haqida shunday fikr bildirgan: "Xalq ijodi - sahnani hayot tarziga aylantirmoqchi bo'lganlarning barchasi uchun eng yaxshi ustozdir. Fol'klor raqlarini sahnaga moslashtirmaslik umuman noma'qul ishdirdi. Kishilar tomoshabin uchun emas o'zi uchun raqsga tushadi. Bu raqlar sahnaga olib chiqilsa, xuddi "hayotdagidek" bo'ladi. Raqsdagagi «o'zi-o'zi uchun» qabilidagi raqlar bartaraf etilganidan so'ng, yasamalik yo'qolib, tabiiylik qoladi. Tomoshabin uchun raqs maishiy raqsning aynan o'zi emas. Raqs ko'rvuchilar paydo bo'lishi bilan tomoshaga aylanadi. Tomoshaning esa o'z qonun-qoidalari bor"

O'zbek raqs san'ati eng qadimiy san'at turlaridan biri hisoblanadi. Insoniyat paydo bo'lganidan buyon «Raqs» paydo bo'lgan, lekin san'at sifatida tushunilmagan. Ibtidoi jamoa tuzumi davridan mehnat jarayonlarini tasvirlash, o'simliklar, hayvonlar, jang va ov qilish, o'zлari ishongan dingga sig'inish kabi harakatlarni bajarganlar. Olov atrofida urib, tosh va cho'plarni bir-biriga urib, qarsak chalib, bir xil qadam tashlab, birgalikda ovoz chiqarib, o'zлari tushunmagan holda «ritm» paydo qilganlar. Odamlarning raqs tushayotgan tasvirlari qoyalardagi rasmlardan, tosh, loy, yog'och haykallarda aks ettirilgan. Raqsnı yozib olish, uning shakllarini ifodalashga urinishlarini insoniyat 40 ming yillar muqaddam boshlaganligi bungayaqqol misol bo'la oladi.

Ko'п yillar davomida insoniyat rivojlanish bilan birga raqs san'ati ham shakllana borgan. Bu san'at xalqning ma'naviy va madaniy boyligining ajralmas qismiga aylanib, o'zining boy an'analari bilan mehnatkash ommaga, ulaming manfaatlariga xizmat qilib kelgan.

Hozirgi kunda, Respubliqamizda o'zbek fol'klor raqs san'atining 5 xil yo'nalishi shakllanib bormoqda. Hududlar bo'yicha – Toshkent-Farg'ona, Buxoro-Samarqand, Xorazm, Surxondaryo-Qashqadaryo vohalarining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi fol'klor raqs san'ati o'r ganilib, izlanishlar olib borilmoqda.

Qadimda Farg'ona vodiysida asosan erkaklar tomonidan ijro etilgan "Katta o'yin" raqs harakatlari doyra usullariga tayangan. Xalq raqslariga xos bo'lgan "Bayot", "Zang", "Katta o'yin", "Shashmaqom", "Nog'ora bayot", "Chapandoz", Andijonda "Qarg'alari", "Kichkinajon-kich-kina", "Bir ko'z" raqsi erkaklar ommaviy raqsi bo'lib epchil, chaqqon harakatlar bilan chopon etagining bir uchi belbog'iqa qistirilib, tovon ko'tarilib, yarim cho'kkalab, yigitlar tirsaklarini tutib ijro etilgan.



Buxoro-Samarqand VI-VIII asrga oid "Sher yigitlar" deb nomlangan raqs spektakli xalq orasida ijro etib kelinganligi bizga ma'lum. "Buxorocha" raqs, asosan xotin-qizlar ijrosida 6-8 nafar sozanda, xonanda, raqqosalalar tomonidan doira, nog'ora, zang, qayroq bilan ijro etilgan. "Mavrigi" esa, faqat erkaklar tomonidan doira cholg'usi ijrosi bilan shakklangan. "Qayroq Ufori" (qayroq jo'r ligidagi quvnoq harakatli ijro), "Ravona" (xonanda jo'r ligidagi ijro), "Ufor" (yakka raqqosa ijrosi), "Larzon" (bir yoki bir nechta doyra jo'r ligidagi ijro), "Zang" (qo'l va oyoqlarga zang qo'ng'iroqchalar taqilib, qo'shiq aytuvchiga jo'r bo'luvchi ijro) raqslari ko'rinishida ijro etilib kelinadi.

Surxondaryocha "Podachilar", "Chiroq", "So'zana", "Kim oladi-yo shuginani-uo", "Chapandoz", "Qoshiq", "Kadi", "Boysun mavrigisi" kabi ko'plab raqslari laparlari, aytishuvlar, ikki tomon bir-birining so'zini ilib olaverish, so'zamon, olg'ir bo'lislari bilan ijro etiladi. Surxon raqs san'ati ashula va musiqa bilan chambarchas bog'lanib ketgan.



Ilgari nog'ora, karnay, surnay, doyra sozlaridan foydalanilgan bo'lsa, keyinchalik lapar, yalla, aytishuvlardan ham foydalanilgan. Ommaviy bayram sayillarida qadimdan mavjud bo'lgan marosim raqs-lari, sujetli raqslar zo'r qiziqish bilan tomosha qilinadi. Ushbu raqlarda urchinotalar, an'analar, qadriyatlar aks ettiriladi.



Xorazm fol'klor raqlari harakatlarga boy. Bizgacha yetib kelgan "Chag'alloq", "Norim-norim", "Aliqambar", "Orazibon", "Mo'ri", "Xo'bbimboy", "Shirin novvot" o'yinlari ijrosida o'g'lon raqqoslari va masxarabozlar o'zini ko'rsatgan bo'lsa, "Ashshadaroz", "Maqom Ufori" kabi raqlarda raqqoslari ustunlik qilgan. "Lazgi" raqs turkumi ijrosida

erkak va ayol raqs ustalari birday mahorat bilan o'ynaydilar. Xorazmda "Lazgi"ning 9 xili mavjud. Bular: "Olov", "Dutor", "Qayroq", "Masxaraboz", "Garmon", "Surnay", "O'g'lon bola", "Xorazm lazgisi", "Zamonaviy lazgi"lardir. Eng mashhur Onajon xalfa Sobirova (Anash cho'loq 1885-1952) xalfa tomoshasi tarkibini saqlash, garmon chalish va kuylash, raqqoslarni o'ynatishda, ayniqsa, xotin-qizlar raqslari sahnaga olib chiqishda katta xizmat qilgan.



Qoraqalpoq xalq raqlarining lirik, hazil turdag'i, to'y, baliqchilar, cho'ponlar haqidagi ko'plab yakka va ommaviy raqlari mavjud. Ikki bo'limdan iborat bo'lgan "Ilme-Sultan", "Amudaryo", "Sonday kuldim", "Aykulash", "Qirq qiz", "Oq oltin" "To'u", "Shag'ala", "Cho'pon" kabi raqlari shular jumlasidandir.

Bugungi kunda yurtimiz mustaqilligidan so'ng tiklanayotgan raqlarning ommaviy tadbirda o'rni kattadir. Chunki, har qanday zo'r qo'shiq ham raqs san'ati bilan yanada to'ldiriladi, tomoshabinni zeriktirmaydi, obrazlar, harakatlar orqali tomoshabinga ta'sir etib, tadbirdarning mazmun-mo hiyatini ochib berishga imkon beradi. "Boysun-Shalola", "Zevari", "Mohi-Sitora", "Beshqarsak", "Chavqi", "Qaldirg'och", "Gavhar", "Aykulash" "Jayxun" va boshqa ko'plab fol'klor-etnografik ansambllar Mustaqillik, Navro'z bayramlarida faol ishtirok etib kelmoqdalar. Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'zbek fol'klor raqlarini oddiy, xalqona, insonlar qalbiga yaqin san'at turi deb aytish mumkin. O'zbek raqs san'atining qaytadan chiroy ochayotgan va sayqal topib borayotgan bu turini yanada rivojlantirish orqali kelajak avlodning ma'naviy boyligini o'stirishga, yoshlarimizda milliy qadriyatlarimizga bo'lgan muhabbatni oshirishga erishishimiz mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Lustkaya. Jizn' v tanse.-m., 1968. 32-bet

Mirziyoev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng olyi bahodir" Toshkent "O'zbekiston" -2018 , 176-221 bet. 2 tom

Ziyo.uz ; GOOGLE.uz;

